



O'RTA OSIYO SUV HAVZALARI XIX ASR TARIXIY MANBALARIDA

Xakimova Saida Baxtiyorovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

xakimovasaida28@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10003222>

ARTICLE INFO

Received: 05th Oktober 2023

Accepted: 13th Oktober 2023

Online: 14th Oktober 2023

KEY WORDS

Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, o'zan, gidrografik ma'lumotlar.

ABSTRACT

Maqolada XIX asr tarixiy manbalarida O'rta Osiyodagi tabiiy suv havzalari, jumladan, Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo haqida berilgan ma'lumotlar tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlarning xususiyatlari tavsiflangan, keyingi davr ilmiy adabiyotlarida ularni inkor etuvchi ma'lumotlar taqqoslanib, muallif xulosasi berilgan.

Introduction. Hozirgi O'zbekiston hududidagi Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Surxon, Qashqadaryo, Chirchiq, Angren daryolari kabi asosiy suv havzalari XIX – XX asr boshlariga oid tarixiy-geografik manbalarda tavsiflangan. Ushbu davr mahalliy manbalarida Orol dengizi va daryolarning batafsil tavsifi deyarli uchramaydi. Siyosiy voqealar yoki ma'lum hududni geografik tasvirlash jarayonida Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolarning nomlari tilga olinadi. Lekin, bu tavsiflar suv manbasining nomi, daryolarning qayerdan oqib kelishi va qaysi hududlarni suv bilan ta'minlashi haqidagi ma'lumotlar bilan cheklanadi.

XIX asrda Yevropada Sharq tarixi, jumladan, Markaziy Osiyo tarixiga qiziqishning kuchayishi rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida yozilgan asarlarda mintaqadagi suv ob'yektlariga katta ahamiyat qaratilishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya uchun bu qiziqish nafaqat ilmiy, balki geosiyosiy ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan birinchi navbatda Rossiya imperiyasi harbiy-siyosiy, ilmiy doiralari mintaqamizning yirik suv havzalarini o'rganish va tavsiflashdan manfaatdor edi. O'rganilayotgan davrda Orol dengizi va yurtimizdagi daryolar haqida eng ko'p ma'lumotlar ham aynan rus manbalarida keltirilgan.

Methods. Maqolada ilmiylik va tarixiylik tamoyillariga amal qilgan holda kontent va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Results and discussion. Suv havzalari haqida ushbu davr rus va xorijiy manbalarida uchraydigan ma'lumotlarni mazmun jihatidan shartli ravishda geografik tavsifdan iborat ma'lumotlar va suv manbalarining tarixi bilan bog'liq axborotlarga bo'lish mumkin. Birinchi turdagi ma'lumotlar Orol dengizi va yirik daryolarning XIX – XX asr boshidagi holati, o'lchamlari, oqimi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati kabi jihatlarni qamrab olgan. Suv manbalarining tarixi bilan bog'liq ikkinchi turdagi ma'lumotlar esa ko'proq Orol dengizining qachondan buyon mavjudligi, undagi suv sathining darajasi, Amudaryo va Sirdaryo oqimining oldingi davrlarda Kaspiy yoki Orol dengiziga quyilgani, daryolar oqimi yo'nalishining



o'zgarishi sabablari haqidagi fikr-mulohazalardan tashkil topib, asosan, antik davr tarixchilari, o'rta asr arab mualliflarining asarlarida keltirilgan turli ma'lumotlarning tahlilidan iborat bo'lgan. Har ikki turdagi ma'lumotlar uchun o'lkada olib borilgan gidrografik tadqiqotlar natijalari daliliy asos bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu davrda Turkistonda mavjud daryolarning barchasi ikki yirik havza – Orol dengizi va Balxash ko'li hamda uchta kichik havza – Olako'l, Issiqko'l va Lobnor ko'llari havzalariga kirgan [4, 150]. Orol dengizi havzasiga hozirgi O'zbekiston hududidan oqib o'tuvchi eng yirik uchta daryo – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari kiradi. Turkiston daryolarining barchasi tog'larda boshlanishi sababli tezoqardir va ular o'zining bu xususiyatini tekislikda ham yo'qotmaydi. Bu uchta daryo o'zining quyi oqimida shimoli-g'arbga qarab oqadi. Qorlardan to'yinuvchi bu daryolar bahorda yoki yoz o'rtalarida toshib, o'zanlaridan chiqadi. Shu davrda ularning sathi kun davomida bir necha marta o'zgarishi mumkin.

Rus tadqiqotchisi L.Kostenko daryolarning ijtimoiy ahamiyatiga to'xtalar ekan, ular asosiy karvon yo'llarini kesib oqishini, shu bois hech qachon savdo aloqalarida muhim rol o'ynamaganini aytib o'tadi [4,154]. Ammo, boshqa manbalarda Amudaryo qadimdan Volgabo'yini Hindistonning shimoliy hududlari bilan bog'laydigan savdo yo'li sifatida tilga olinadi [10, 7].

Ayni vaqtda, L.Kostenko daryolar yerlarni sug'orish jihatidan mintaqa aholisi uchun nihoyatda muhim ahamiyatga egaligi, ular cho'llarni obod qilishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shu o'rinda ba'zi daryolarning suvi tamoman sug'orishga sarflanishi, jumladan, qachonlardir Amudaryoga quyilgan Zarafshon suvlari sug'orishga ko'p ishlatilgani bois endilikda Amuga yetib bormay qolganini qayd etadi [4, 154]. Demak, suvning ko'p miqdorda yerlarni sug'orish uchun sarflanishi sababli daryolardagi suv hajmining kamayishi muammosi mintaqada azaldan mavjud bo'lgan.

Tadqiqotchilar tomonidan Amudaryo va Sirdaryoga xos bo'lgan yana bir jihat – janubdan shimolga qarab oquvchi daryolar o'ngga qarab og'ish xususiyatiga ega ekanligi qayd etiladi. Turon pasttekisligidagi ikki azim daryo bu nuqtai nazarni to'la tasdiqlaydi. Ularning har biri g'arb tomonidan bir nechtadan qurib qolgan o'zanlarga ega, ammo, sharq tomonda birorta ham quruq o'zan mavjud emas [15]. XIX asr G'arb olimlari daryolar o'zanining shu tariqa o'zgarishi qator shahar va qishloqlarning xarob bo'lishiga, ularning tashlandiq holatga kelishiga sabab bo'lgan, deb hisoblaydi. Jumladan, fransiyalik olim E.Reklyu "bu yurtda shaharlarning paydo bo'lishi yoki yo'qolishi, yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishi daryo o'zanlarining o'zgarishiga bog'liq. Agar cho'lda Amudaryoning yangi irmog'i paydo bo'lsa, bir necha loysuvoq uychalar gavjum joyga aylanadi, boshqa irmog'i qurib qolsa, farovon katta shahar kichkina qishloqqa aylanib qoladi", degan fikrni bildiradi [9, 391]. Bunga dalil sifatida u Ko'hna Urganch shahrining tanazzulga yuz tutganini eslatadi. Sovet davrida faoliyat olib borgan bir qator olimlar (L.S.Berg, S.P.Tolstov) bu fikrga qarshi chiqib, qadimgi shahar va manzilgohlarning vayrona holga kelishi iqlimning quruqlashib borishidan emas, balki ijtimoiy-siyosiy sabablar, birinchi navbatda, urushlar tufayli ro'y bergan, deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, E.Reklyuning fikrini ham to'la rad etib bo'lmaydi. Chunki qadimdan odamlar suv manbalariga ergashib, ularning atrofida manzilgohlar barpo etgan. Sivilizatsiyalarni tasniflashda ham "daryo sivilizatsiyasi" atamasi bekorga qo'llanilmaydi.



Mintaqaning eng yirik suv havzasi, shubhasiz, Orol dengizi bo'lgan. XIX asrga tegishli qator rus manbalarida Orol dengizining antik davr va o'rta asrlarda tavsiflanishi tahlili ko'p uchraydi. Xususan, o'rta asr arab geograf olimlari Istaxriy, Mas'udiy, Ibn Havqal, Ibn Dast, Idrisiy va Yoqut asarlarida Orol dengizi "Xorazm ko'li" nomi bilan tilga olinishi, uning aylanasini 100 farsax, suvi achchiq-sho'r ekanligi, dengizdan suv chiqib ketadigan joyning yo'qligi, dengizga Jayhun (Amudaryo) va Shosh (Sirdaryo) daryolarining quyilishi qayd etilganligi ta'kidlanadi [2, 9]. Shermuhammad Munis ham dengizni "bahirai Xorazm" deb atab, Mirxondning "Ravzat us-safo" asari xotimasida "oning masohatini yuz farsang bitibdurlar. Alhol ikki yuz farsang ziyoda derlar", degan ma'lumotni keltiradi [11, 231]. Muhammad Yusuf Bayoniy "Shajarai Horazmshohiy" asarida "Orol ko'li" nomini qo'llaydi [7, 24]. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, XIX – XX asr boshida Orolga nisbatan ham ko'l, ham dengiz atamasi qo'llanilgan.

Ruslar Kaspiy dengizi havzalarida yashovchi Sharq xalqlari bilan savdo aloqalari olib borganligi bois Orol dengizining mavjudligi haqida ancha oldin tasavvurga ega bo'lishgan. Masalan, 1627-yilda Rossiyada Yer tasviri tushirilgan "Книга Большому Чертежу" nomli atlas yaratiladi. Unda Orol dengizi suvining to'q ko'k rangda bo'lganligi sababli "Ko'k dengiz" deb nomlangan. Rus manbalarida ilk bor 1697-yildan "Orol dengizi" atamasi qo'llanilgan [1, 203]. 1723-yilda fransiyalik geograf olim G.Delil o'zi tuzgan xaritada dengizni Orol nomi bilan tasvirlagan. Bu davrda Yevropada antik davr mualliflarining asarlari ta'sirida Amudaryo Kaspiy dengiziga quyiladi, degan tasavvur hukmron edi. 1717-yilda Rossiya imperatori Pyotr I ning Fransiyaga tashrifi chog'ida G.Delil bilan uchrashib, uni Amudaryo Kaspiyga emas, balki ilmiy jamoatchilikka uncha tanish bo'lmagan Orol dengiziga quyilishiga ishontirdi. Ehtimol, shu sababdan G.Delil Orol dengizi haqida ma'lumotga ega bo'lib, uni xaritaga shu nom bilan tushiradi [3, 14].

XIX asr boshida fanda Orol dengizi haqida hali aniq ilmiy ma'lumotlar mavjud emas edi. 1820-yilda A.Negri elchilik missiyasi tarkibida bo'lgan kapitan Ye.K.Meyendorf o'zining safarnomasida Orol dengizi haqida bir qator ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Sharqda uning "Urganch dengizi" deb atalishi, sharq va shimoli-g'arbidan qumloqlar, shimoli-sharqdan adirlar, g'arbdan tog'lar bilan o'ralganini qayd etadi. Dengizning janubida orollarning ko'pligi va ularda baliqchilik bilan shug'ullanuvchi orolliklar istiqomat qilishi, Orol dengizida Kaspiy dengizi bilan bir xil baliqlar borligi aytib o'tilgan [6, 65-66]. Muallifning Orol dengizining g'arbiy qirg'oqlari tog'li bo'lgani bois uning bu qismi nisbatan chuqurroq bo'lishi kerak, degan taxmini keyinchalik A.I.Butakov tomonidan tasdiqlandi.

XIX asrning 70-yillariga kelib olib borilgan maxsus izlanishlar natijasida rus mualliflari Orol dengizi haqida ancha to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Jumladan, ularning asarlarida dengizning joylashgan o'rni va o'lchamlari haqida aniq ma'lumotlar keltiriladi. Rus tadqiqotchilaridan biri – N.Mayevning yozishicha, Orol dengizi Turon pasttekisligining g'arbiy chekkasida, Kaspiy dengizidan 260 vyorst sharqda joylashgan. Dengizning shimoldan janubga uzunligi 400, kengligi 200-270 vyorst bo'lgan [5, 110]. Taqqoslash uchun aytib o'tish kerakki, XX asrning o'rtalarida bu ko'rsatgich deyarli o'zgarmay, dengizning uzunligi 428, eng keng qismi esa 284 kilometrni tashkil etgan [12, 102]. Demak, bir asr mobaynida Orol dengizining o'lchamlari jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'lmagan.



Biroq, XIX asr o'rtalaridan ilmiy jamoatchilikni Orol dengizining qurib borayotgani haqidagi nazariya o'ylantirardi. Bunga o'sha davrda amalga oshirilgan kuzatishlar asos bo'ladi. G.Lansdell fransuz tadqiqotchisi E.Reklyuning Orol dengizi haqida bildirgan quyidagi fikrini keltiradi: "Orol dengizi Amudaryo suvidan mahrum bo'lgan taqdirda birinchi yiliyoq o'z hajmining 20 foizini yo'qotadi. 10-12 yildan keyin dengiz hozirgi holatning teng yarim miqdoriga ega bo'lib qoladi. Uning katta qismini tashkil etuvchi tekis tubi qurib qoladi. 80 yildan keyin suv faqat 5 ta chuqurlikda saqlanib qolib, ulardan ikkitasi markazda, qolganlari g'arbiy tomonda bo'ladi. Natijada Orol dengizi maydoni dasht ko'llari o'lchami bilan tenglashadi" [14, 431-432].

Italiyalik geograf Luidji Xyug ham 1874-yilda chop etilgan "Orol dengizi" risolasida A.O.Dyugamel, L.A.Zagoskin, P.F.Anju, A.I.Butakov, K.V.Struve tomonidan turli yillarda o'tkazilgan o'lchovlarga asoslanib, dengiz sathining tobora pastlab borayotgani va uning kelajakda qurib, alohida ko'llarga bo'linib ketishini aytadi [13, 43]. Ko'rinib turibdiki, XIX asrdayoq olimlar Orol dengizining kelajakda qurib qolishi mumkinligini bashorat qilishgan.

Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amerikalik geograf E.Xentington O'rta Osiyo hududining "progressiv qurib borish nazariyasi"ni yaratadi. U Orolbo'yida ilgari sug'orilgan, lekin endilikda tashlandiq bo'lib qolgan yerlar, turar-joylarni ko'rib, bunday ahvolning asosiy sababi iqlimning quruqlashib borishi, degan xulosaga keladi. G.Ye.Grumb-Grijimaylo, I.V.Mushketov, P.A.Kropotkinlar ham shunga yaqin fikr bildirganlar.

L.S.Berg va A.I.Voyeykov esa ushbu nazariyani rad etishadi. Jumladan, A.I.Voyeykov O'rta Osiyo daryolari tog'lar va iqlim mahsuli, deb hisoblab, quyidagilarni yozadi: "O'lkada doimo o'sib borayotgan qurg'oqchilik yo'q, faqat qurg'oqchil yillarning almashinib turishi kuzatilmogda. Ayrim yillarda daryo va ko'llarga suv kamroq keladi, muzliklar qisqaradi. Seryomg'ir, qorli, namli yillarda esa muzliklar to'yinadi hamda daryo va ko'llarda suvning miqdori ko'payadi" [8, 112].

Daryolarda oqayotgan suvning hajmi ularning sarchashmasi bo'lgan tog'lardagi ob-havo va yog'ingarchilikka bog'liqligi sovet davri tadqiqotchilari tomonidan ham e'tirof etilgan. XX asrning 50-60-yillarida sun'iy sug'oriladigan yer maydonlarining jadal ravishda kengaytirilishi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining tabiiy regressiyasi paytiga to'g'ri kelib, fojiali oqibatlarni yuzaga keltirdi.

Orol dengiziga ikki azim daryo – Amudaryo va Sirdaryo tinimsiz suv olib kelar, ammo, dengizdan chiqib ketadigan daryo bo'lmasa-da, undagi suv qirg'oqlardan toshib ketmas edi. Mahalliy aholi bunga izoh sifatida Orol dengizining tubida uni Kaspiy dengizi bilan bog'laydigan tunnel bor, deb hisoblardi. Olimlar esa buni fizikaviy qonuniyat bilan bog'lab, aslida dengiz sathining ko'tarilib ketmasligini suvning yuqori darajada bug'lanishi bilan izohlaydi.

Conclusions. XIX – XX asr boshida Rossiya imperiyasi va G'arbiy Yevropada Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolar haqida turli ma'lumotlar aks etgan ko'plab adabiyotlar yaratildi. Ularning ba'zilari bevosita O'rta Osiyoga tashrif buyurgan shaxslarning kuzatishlari, izlanishlari asosida yozilgan bo'lsa, boshqalari shunday kitoblarning tahlili sifatida paydo bo'lgan. Ayni davrda mintaqadagi suv havzalari haqida eng ko'p axborot rusiyzabon mualliflarning asarlarida mujassamlanadi.



Shu davrda olingan ma'lumotlar suv havzalarining mavjud holatini ro'y-rost tasvirlagan. Biroq, ularning tarixi bilan bog'liq ko'p farazlar hozirgi kunda o'z tasdig'ini topmadi. Orolning paydo bo'lishi, Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy oqimi haqidagi xulosalar shular jumlasiga kiradi. Lekin, o'sha davrdagi imkoniyatlarni inobatga olgan holda, qo'lga kiritilgan natijalar ancha salmoqli bo'lganligini e'tirof etish kerak.

References:

1. Галкин Г.А. "Родословная" названий южных морей СССР. Известия Всесоюзного географического общества. Т.123. Выпуск 2. – Москва, 1991. – С. 203.
2. Глуховский А. Пропуск воды р. Аму-Дарьи по старому ее руслу в Каспийское море и образование непрерывного водного пути от границ Афганистана до Петербурга. – Санкт-Петербург, 1893. – С. 9.
3. Дмитриев В.И. А.И.Бутаков. – Москва: Государственное издание географической литературы, 1955. – С. 14.
4. Костенко Л. Туркестанский край. Опыт военно-статистического обозрения Туркестанского военного округа. – Санкт-Петербург, 1880. – С. 150.
5. Маев Н.А. Топографический очерк. Материалы для статистики Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1872. – С. 110.
6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва: Наука, 1975. – С. 65-66.
7. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 24.
8. Раззоқов А. Сув ва ҳаёт. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – Б. 112.
9. Реклю Э. Земля и люди. Всеобщая география. Том 6. – Санкт-Петербург, 1892. – С. 391.
10. Романов Н.К. Аму и Узбой. – Самара, 1879. – С. 2; Глуховский А. Пропуск воды р. Аму-Дарьи по старому ее руслу в Каспийское море и образование непрерывного водного пути от границ Афганистана до Петербурга. – Санкт-Петербург, 1893. – С. 7.
11. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс-ул иқбол. – Тошкент: O'qituvchi, 2010. – Б. 231.
12. Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. – Ташкент: Издательство САГУ, 1958. – С. 102.
13. Hugues Luigi. Il lago di Aral // Туркестанский сборник. Том 197. – 1874. – С. 43.
14. Lansdell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Vol I. – London, 1885. – P. 431-432.
15. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda O'z MA). И-1-fond, 14-ro'yxat, 466-yig'majild, 63-varaq.
16. Khakimova S.B. History of hydrographical researches on the Amu Darya in the XIXth century // Theoretical and Applied Science. – Philadelphia, 2020.
 - a. Issue 05 (85). – P. 927-934. DOI: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>.
17. Khakimova S.B. Hydrographic research in Turkestan by Russian empire: goals and methods // «Евразийский Союз Ученых»: Научный журнал.
 - b. Москва, 2021. – № 4 (85). Том 5. – P. 4-10. DOI: 10.31618/ESU.2413-9335.2021.5.85.